E-ISSN: 2997-9439

American Journal of Education and Evaluation Studies

https://semantjournals.org/index.php/ AJEES

| Research Article

Check for updates

Mahdiy Devonining Tarkibiy Tuzilishi Va Janr Xususiyatlari

Yunusova Shahlo

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Kattaqo'rg'on adabiy muhiti vakillaridan biri bo'lgan Mahdiy Kattaqo‘rg'oniyning hozirgacha aniqlangan devoni tarkibi, tuzilishi, undagi janrlar masalasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Mahdiy, devon, kompozitsiya, hajm, nusxalari, janrlar poetikasi.

This is an open-access article under the CC-BY 4.0 license

Mahdiy Kattaqo‘rg'oniy XIX asrning I – yarmidagi o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biridir. U o‘z zamonasining har jihatdan bilimli ziyolisi, ilg'or fikrli seliisonayn (uch tili) shoiri sifatida shuhrat qozongan. O‘tmish manbalari ichida Vozeh Buxoriyning «Tuhfatul-ahbob fi tazkiratul-as'hob» (1871) asarida «Mahdiy keksa kishi ekan, Kattaqo‘rg'on shahridan. Ilm tahsil qilgan: she'r aytishga extirosi zo‘r. Arab, fors va turkiyda ko‘p she'rlar aytgan hamda devon tuzgan. «Muxtasari viqoya»ni ham nazm yo‘li bilan sharhlab, foydali ish qilgan. Biz uni ko‘ra olmagan bo‘lsak ham, bilgan kishilardan eshitishimizcha, juda samimiy, ulfat va xushsuhbat kishi bo‘lgan ekan. She'rlari ham g'oyat nafis, lug'at ilmidan tugal bilimga ega. 1278-hijriy yilgacha vafot etgan» kabi muhim qaydlar keltiriladi.

Mirsiddiq Hashmat ham XIX asr oxirida tuzgan «Tazkiratush-shuaro» asarida, Qori Rahmatullo Vozeh asaridagi fikrlarga tayangan holda, Mahdiyni o‘zbek va fors-tojik adabiyotining yetuk namoyandasi, lug'at va shar'iya ilmlarining ham chuqur bilimdoni («dar masnavy va ash'ori turky va forsy-forisi maydoni balog'at, az ulumi shar'iya va lug'at bahramand») sifatida ta'riflaydi. 1927-yilga kelib kattaqo‘rg'onli hajvchi shoir, adib Abdulhamid Majidiy o‘z yurtdosh ijodkorlari merosini o‘rganishga kirishib, Mahdiy hamda Miriylar tarjimai holi va aniqlangan asarlari haqida «Maorif va o‘qituvchi» jurnalida ilk maqolalarini e'lon qildi. U qatog'on qilingach, bu yo‘ldagi sa'y harakatlar ham to‘xtab qoldi. Lekin faqat 50-yillarning oxiridagina Mahdiy Kattaqo‘rg'oniy ijodini keng planda tadqiq va tashviq qilishga kirishildi. Natijada Respublikamizning qo‘lyozma fondlarida, ayrim shaxslarda saqlanib kelgan shoirga tegishli asarlar aniqlandi. Shular asosida 1959 -ildan nashr etilgan «O‘zbek adabiyoti» ko‘p tomligiga uning she'rlaridan namunalar kiritildi.

Mahdiyning turli fondlarda saqlanayotgan arab grammatikasi (sarf, nahv)ga oid «Risolai qofiya yo mir'otun nahv», shariat normalarining qisqartirilgan majmuasidan iborat bo‘lgan «Kitobi mir'ot» unga ilova qilingan «Hallul-lug'at» asari ham buni tasdiqlaydi.

Abdulhamid Majidiy 20-yillarda Mahdiyning mukammal she'riy devoni mavjudligini va u shoir haqidagi o‘z adabiy tekshirishlarida shu manbaga tayanib ish ko‘rayotganligini eslatib o‘tadi.

Biroq, bizning nazarimizda, bu mo‘tabar manba noma’lum sabablarga ko‘ra yo‘qolib ketgan va hanuzgacha topilgan emas. Hozir bizga ma’lum bo‘lgan va shoir asarlarini o‘z ichiga oluvchi devon va qo‘lyozma manbalar, shuningdek, chop etilgan asarlar uning ijodini o‘rganish uchun yetarli material bersa ham, lekin ularni Mahdiy adabiy merosining hammasi deb aytish qiyin. Mahdiyning chala devon va turli bayozlardagi lirik she’rlarining umumiy ko‘lami 3000 misra atrofidadir. Bular ichida lirik turning yetakchi janrlaridan biri bo‘lib kelgan g’azal salmoqli o‘rin tutadi. Mahdiy tomonidan yaratilgan o‘zbekcha, tojikcha va qisman arabcha g’azallarining 50 dan ortiq namunalari mavjud. Uning (uch tildagi) g’azallari g’oyaviy hamda badiiy-estetik jihatdan mukammal asarlar bo‘lib, muallifning yuksak mahoratidan guvohlik beradi.

Mahdiy poeziyasida tazmin va tab’i xud (mustaqil) muxammas, musaddas, musabba, musamman shaklidagi she’rlar–musammatlar ham mavjud. Ular ichida ayniqsa Alisher Navoiy, Mirza Bedil, Hasrat kabi shoirlar g’azallariga yozilgan musammatlar diqqatga sazovordir. Mahdiyning mustaqil musammatlari ham o‘ziga xos g’oyaviy va shakliy xususiyatlarga ega. Shoir musammatning adabiy tarixida juda siyrak uchrovchi muashshar (o‘nlik) shaklida ham she’r bitgan. Uning ijodida she’riy hikoya (masnaviy), ruboiy, fard, qit’a, marsiya, muvashshah, chiston tipidagi she’r namunalari ham oz bo‘lsa-da, bor. Bu hol Mahdiyning hozir bizga ma’lum bo‘lgan poetik merosi, aniqrog’i, lirikasi ham tematik, ham g’oyaviy, ham janr jihatidan rang–barang ekanligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda Mahdiyning tojik tilidagi katta bir asari «Muxtasar ul-viqoya»ni ham eslatib o‘tmoq lozim. Mahdiy ustozi va do‘stlarining iltimosiga binoan, fiqxga oid bo‘lgan diniy-didaktik xarakterdagi bu mashhur asarni masnaviy yo‘li bilan sharhlab, katta hajmdagi she’riy asarga aylantiradi. Uning Samarqand davlat universiteti qo’lyozmalar fondida 11097153 inventar raqami bilan saqlanayotgan avtograf nusxasi 434 sahifa, taxminan 23000 misradan iborat. U 26 bobga, faslga bo‘linadi, yaxlit hikoya qilib beruvchi syujetga, obrazlarga ega emas. Klassik adabiyotimizdagi dostonchilik asarlariga xos bo‘lgan monolog va dialog xarakteridagi lirik she’rlar yo‘q, ular o‘rnida diniy arboblar tilidan keltirilgan hadislar, oyatlar, nasihatomuz rivoyat va hikoyalar beriladi. Asar oxirida kitobdagi arabcha so‘z va terminlarning lug’aviy ma’nolarini tushuntirib beruvchi lug’at – «Hallul-lug’at» ham ilova qilingan. Bu asar mashhur fiqx olimi Burxoniddin Marg’iloniy «Xidoya»siga yozilgan tafsir asari «Muxtasar–ul viqoya» (muallifi Ubaydullo Ibn Mas’ud)ning fors–tojikcha nazmiy talqinidir.

Xulosa

Mahdiy devonidagi she’rlari tasviriy vositalarga, go‘zal tavsif va o‘xshatishlarga, majoz va istioralarga, mubolag'a va murojaatlarga, xilma–xil xalq iboralariga ham nihoyatda boy. Shavqiyning shunday g’azallari ham borki, ularning deyarli har bir bayti xalq hikmati darajasigacha ko‘tarilgan. Shoir xalq maqol va aforizmlaridan bevosita foydalanish bilan birga, ularni davr va sharoitga, ifodalayotgan poetik mazmunga, vazn va qofiyaga moslab qayta ishlaydiki, bularga oid ayrim dalillar Shavqiyning adabiy portretiga oid turli sahifalarda keltirildi. Shu bois XIX asrning II-yarmi va XX asrda Kattaqo‘rg'on va boshqa hududlarda yashab ijod etgan anchagina hassos shoirlar Shavqiy ijodidan turli ko‘rinishlarda bahramand bo‘lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳдий. Девон. СамДУ қўлёзмалар бўлимида сақланаётган 1097153 инв. рақам.
2. Маҳдий шеърлар. Ўзбек адабиёти. Мажмуа, 5-жилд, 1-китоб. Т., 1966.
3. Орзибеков Р. XIX аср ўзбек адабиёти тарихига доир материаллар. Самарқанд, 1985.
4. Орзибеков Р. Каттақўрғон. Кеча ва бугун. – Самарқанд, “Зарафшон” нашриёти, 1994.
5. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 4-жилд. – Т.: Фан, 1978.
6. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
7. Пўлатжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий, 3 жилдлик, 2-жилд. – Т., 1998.